

ZAMONAVIY KOREYS YOZUVCHISI LEE O RYONNING “UCHISH” ESSESIDA ANTONOMIK BIRLIKLAR

N. Azimova

TDSHU 2-kurs magistranti

Annonatatsiya: Mazkur tezisda koreys mualliflarining, jumladan, Lee O Ryonning antonomik birliklar matnni semantik- sintaktik tashkil etish turlaridan biri vazifasini bajaradi. Muallifning o‘z insholarida tez-tez o‘z dalillarini qo‘llab quvvatlash uchun umumiy lingvistik va kontekstual antonimlardan foydalangan.

Kalit so‘zlar: umumiy til antonimlari, kontekstual antonomiya, matnni tashkil etish, matn antonomiyasi

Tilshunoslikda so‘nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarda bir yo‘nalishning boshqalari bilan o‘zaro integratsiyalashuvi ro‘y bermoqda. Tildan foydalanish intellektual salohiyat va ilg‘or texnologiyalar taraqqiyotining rivojiga bevosita ta‘sir ko‘rsatish bosqichiga qadam qo‘ydi. Tilning roli va ahamiyati oshdi. Shuningdek nutqning shakllanishida muhim funksional tartibga soluvchi sifatida baholanadi. Tilshunoslikda zid ma‘noni beruvchi matn komponentlariga bag‘ishlangan ishlarning ahaiyatlik darajasi oshib bormoqda. Shuningdek ushbu komponentlarni tahlil qilishning yangi usullarini tadqiq qilish zarurati tug‘ulmoqda. Koreys tilida zid ma‘noli so‘zlar muommosi keng doiradagi turli yechimlar, shu jumladan, zid ma‘noli so‘zlar semantikasi va uni ifodalash usullariga turlicha yondashuvlarda namoyon bo‘ladi[한계임,2013,170]. Ayrim tadqiqot ishlarida zid ma‘noni ifodalashning til vositalari yechimini topishda salbiy va ijobiy ma‘nolarning taqqoslanishi mumkinligi ham hisobga olinadi [진소,2005,56]. Antonomik ma‘no birliklarini o‘rganish natijasida antonmik munosabatlar tilning nafaqat leksik, balki grammatik darajasidagi birliklarga ham xos xususiyat degan xulosaga kelishdi. Ilyosovning fikriga ko‘ra, so‘zlarning (kontekst antonimlarning) konteks jihatdan cheklangan qarama-qarshiligining eng xarakterli xususiyati shundaki, ular tildagi birlamchi vazifalariga ko‘ra, turli mavzu guruhlariga mansub, ammo ikkinchi darajali funksiyalari bilan belgilanadi. Muayyan kontekstda ular umumiy tematik guruhga kiradi va shu bilan birga ularning muhim semantik farqi yo‘q qilinadi. Kontekstli antonimlarda foydalanish yozuvchining lingvistik ijodkorligini ko‘rsatgichidir.

그런데 어째서 하늘을 자유롭게 날아다니는 새 날개가 그렇게 나쁜 뜻을 갖게 되었는가. 그것은 두 날개가 서로 반대 방향을 보고 있기 때문이다. 하나는 오른쪽을 보고 있고 또 한쪽은 왼쪽을 보고 있다.

Lekin nega osmonda bemalol uchadigan qush qanotlari bunchalik yomon ma'noga ega edi? Buning sababi shundaki, ikki qanot qarama-qarshi tomonga qaragan. Biri o'ngga, ikkinchisi chapga qaraydi. Misolda zid ma‘noli so‘zlarni qo‘llash orqali ifodalanayotgan fikrni yanada kuchaytirish, ta‘sirchanligini oshirishga erishilgan. Muallif ijodida ana shunday zid ma‘noli so‘zlarni qo‘llash orqali bayon qilmoqchi bo‘lgan maqsadlarini ochiq yoritib bergan. Ma‘lumki, antonimik birliklar ega bo‘lgan turli xil

xususiyatlarga qarab, semantik qarama-qarshiliklarni ajratish mumkin: umumiy lingvistik (yoki oddiygina lingvistik, odatiy) va kontekstual-nutq (yoki vaziyat).

Keltirilgan namunada:

새는 한쪽 날개로만 날지 못한다. 두 날개가, 서로 다른 날개가 있어야 비로소 자유롭게 난다. 이른바 “반대의 일치”라는 오랜 논리가 이 새 날개의 논법에 속한다. 여가 있으면 그것에 대립된 야가 있어야 하는 것과 마찬가지다. [이 어령, 2009, 232]

Qushlar faqat bitta qanot bilan ucha olmaydi. Ikki qanotli, har xil qanotli bo'lgandagina erkin ucha olasiz. "Qarama-qarshiliklar birligi" deb ataladigan eski mantiq bu yangi qanotning argumentiga tegishli. Xuddi buzg'unchilik bor, unga qarshi adolat bo'lishi kerak.

기업도 공직 자도 평범한 시민들도 알고 보면 다 각기 어긋난 두 날개를 지니고 살고 있다. 개인과 집단, 가족과 사회, 물질과 정신, 이성과 감정- 이렇게 상반되는 세계에 두 다리를 걸치며 사라간다.

Agar kompaniyalar, davlat amaldorlari va oddiy fuqarolarga qarasangiz, ularning barchasi noto'g'ri joylashtirilgan ikki qanot bilan yashaydi. Shaxs va guruh, oila va jamiyat, moddiy va tanlov, aql va his-tuyg'u - biz bu qarama-qarshi dunyolarni ikki oyog'imiz bilan bosib yashaymiz. (Muallif tarjimas)

Keltirilgan namunada shaxs va guruh, oila va jamiyat, aql va his-tuyg'u kabi so'zlarni qo'llash orqali ya'ni bular qushning ikki qanoti kabi, bir-biri bilan uzviy bog'liq ularni ayro tasavvur qilib bo'lmaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Lee O Ryon o'z insholarida ko'pincha turli tushunchalarni ifodalashda mana shunday hayotiy misollar orqali kontrastni aks ettirish uchun yuqoridagi kabi usullardan foydalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 이어령. 뜻으로 읽는 한국어 사전.-서울: 문학사, 2008. -232
2. 진소. 한국어반대어연구: 부정접두어 반의어를 중심으로. -대구: 영남대학교, 2005
3. 함계임. 한국어 대립 연결어에 관한 인지 언어학적 연구.-서울: 한국외국어대학교, 2013
5. Байматова, М. (2022). Проблема перевода и адаптации непереводаемой терминологии (на примере английского и корейского языков). Анализ актуальных проблем, инноваций, традиций, решений и художественной литературы в преподавании иностранных языков, 1(01), 190-192
6. Базарова, Ш. Ш. (2022). Koreys adibasi shin kyon suk ijodining o'ziga xosligi xususida. *Международный журнал искусство слова*, 5(3).
7. Назарова, Ш. Б. (2019). Ўзбек ва корейс тилида адвербализация ходисасининг киёсий таҳлили.
8. Usmonqulovna, B. D., & Aziz To'liqin o'g, A. (2023). O'zbek va koreys tillarida adyektivatsiya hodisasi. *Journal of new century innovations*, 24(1), 46-49.

9.Эшимова, Ш. К. (2022). Personifikatsiya orqali obrazning yaratilishi. международный журнал искусство слова, 5(4).

10.Furkatovna, B. I. (2023). Discursive-pragmatic characteristics of articles expressing the etiquette of communication (on the example of Korean and Uzbek languages). Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, (1), 24-29.